RELIGIONIMLAR TIZIMIDA SINONIMIYA HODISASI

Zulayho Hamroqo‘lovna TO‘YCHIYEVA
o‘qituvchi
Guliston davlat universiteti
Guliston, O‘zbekiston

Annotatsiya

Maqolada diniy islomiy religionimlar tizimida leksik-semantik hodisalar hamda diniy leksikada sinonimlarning o‘ziga xos amaliy ahamiyati xususida so‘z yuritiladi. Diniy leksikaning o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor qaratilib, diniy islomiy religionimlar matnning illyustrativ materiali sifatida keltiriladi.

Tayanch so‘zlar: til, lug‘at, diniy leksika, sinonim, shakldosh, religionim.

ЯВЛЕНИЕ СИНОНИМОВ В СИСТЕМЕ РЕЛИГИОНИМОВ

Зулайхо Хамрокуловна ТУЙЧИЕВА
Преподаватель
Гулистанский государственный университет
Гулистан, Узбекистан

Аннотация

В статье рассматриваются лексико-семантические явления в системе исламских религиозных наименований, а также специфика функции синонимов в религиозной лексике. В статье уделяется внимание особенностям религиозной лексики. Иллюстративным материалом для статьи служат религиозные исламские религионимы.

Ключевые слова: язык, словарь, религиозный лексикон, синоним, однокоренные слова, религионим.

Ma’lumki, badiiy asarda qo‘llangan lug‘aviy birliklar bilan diniy leksikani aks ettiruvchi lug‘aviy birliklar ayrim xususiyatlariga ko‘ra bir-biridan farqlanadi. Badiiy asarda ijodkor qahramon qiyofasini, xarakter-xususiyatlarini ochib berishda so‘zlardan erkin va ijodiy foydalansa, diniy matnlarda esa unday emas. Muallif diniy matnlar tuzishda diniy tushunchani anglatuvchi qo‘llanishda bo‘lgan lug‘aviy birliklar – religionimlarga ehtiyotkorona munosabatda bo‘ladi. Avval ham aytganimiz kabi so‘zlar ma’no anglatadi, religionomlar esa tushuncha anglatadi. So‘zlar ma’no nozikligini ko‘rsatishi uchun matnda kelishi talab etilsa, religionimlarda esa bunga ehtiyoj yo‘q, ular matndan tashqarida ham tushuncha anglataveradi.

Biz quyida diniy leksikada sinonimlarning o‘ziga xos amali xususida so‘z yuritamiz.

Sinonim va sinonimiya lug‘aviy-mazmuniy medioqurilmalarning shunday ko‘rinishiki, ularda tovush qurilishida tubdan farq qiluvchi ikki yoki undan ortiq lug‘aviy birliklar (leksemalar) bir umumiy ma’no doirasida birlashadi. Shu bois an’anaviy tilshunoslikda sinonimlarga “shakli har xil, ma’nosi bir xil so‘zlar” degan ta’rif beriladi va bu ta’rif umumta’lim maktablari darsliklarida ham hech o‘zgarishsiz uchraydi. Darhaqiqat, bir sinonimiya paradigmasida (qatorida, uyasida) tutashuvchi lug‘aviy birliklar bir umumiy denotatsiyaga ega bo‘ladi. Masalan, *uy – bino – kulba, ko‘cha – yo‘l, ko‘k – osmon – fazo, bosh – kalla* paradigmatik qatorlariga e’tibor bersak, birinchi sinonimik qatorni tashkil qilgan lug‘aviy birliklar “yashash makoni” ma’nosidagi bir umumiy denotatsiyaga asoslangan. Keyingi sinonimik qatorni hosil qilgan lug‘aviy birliklar esa, “yer yuzini tepadan qoplovchi planeta” ma’nosini va shu ma’noning nolisoniy obyektini (denotatsiyasini) atagan. Ko‘cha va yo‘l, bosh va kalla lug‘aviy birliklari munosabatidan tashkil topgan sinonimiya qatorida ham shularga o‘xshash xususiyat mavjud: sinonimik muqobillar “kishilar va har xil naqliyot vositalari harakat qiladigan obyekt” ma’nosi bilan bir umumiy denotatsiya atamasi sifatida xizmat qiladi. Bosh va kalla so‘zlarining “inson va hayvon tanasining yuqori qismi” ma’nosini anglatishi va shu ma’noning nolisoniy asosini hamma bir xil tushunadi [1;72].

Ma’lumki, shaklan har xil, ammo bir tushunchani turli bo‘yoq va ifoda tusi bilan ifodalaydigan sinonimik birliklar o‘ziga xos lingvistik hodisa hisoblanadi. Ularning yuzaga kelishida ichki va tashqi lisoniy manbalar ishtirok etadi. Sinonim leksemalar orasidagi munosabat sinonimiya yoki sinonimik munosabat deb yuritiladi. Sinonim leksemalar sememalaridagi atash va vazifa semasi aynan bir xil bo‘lib, ifoda semasi farqlanadi.

Ma’nodosh so‘zlar muayyan tilning lug‘aviy jihatdan boylik darajasini ko‘rsatib beruvchi o‘ziga xos lingvistik hodisa, vosita hamdir. Tilda ma’nodosh so‘zlarning miqdoran ko‘p bo‘lishi tilning estetik vazifasini yanada to‘liq bajara

olishini osonlashtiradi. Bu holat qadimgi davrlardan beri anglangan, idrok etilgan va o‘rganilgan. O‘zbek tili ham ma’nodosh so‘zlarga juda boy tillardan sanaladi. Ijodkorlar tilimizdagi ma’nodosh so‘zlar orasidan tasvir maqsadi va ruhiga muvofiq keladigan so‘zni topib, tanlab, o‘z asarlari matnida qo‘llashga harakat qiladilar, shu tariqa, qahramonlar ruhiyati hamda tasvir obyektining eng kichik qirralarigacha aniq, ifodali, ta’sirchan qilib ko‘rsatib berishga erishadilar [3;51].

Mahoratli, tajribali, zukko ijodkorlarning asarlari sinonimik birliklardan unumli va samarali foydalanish namunalari ham hisoblanadi. Ulardagi sinonim so‘zlar nutqni chiroyli, ta’sirchan va ravon qilishda, so‘z sehrini namoyish etishda, ortiqcha takrorlarga yo‘l qo‘ymaslikda, bir ma’noni xilma-xil so‘zlar orqali turli nozik ma’no qirralari bilan ifodalashning eng muhim vositalaridan biriga aylanadi.

Baytul haram – Ka’ba va u joylashgan masjid hovlisining atalishi, bu yerda har qanday jonzotni ozorlash, o‘ldirish harom, man qilingan.

Nishiman ayladi ko‘nglum qushi qo‘yungda, qahr etma,
Kabutarg‘a kishi qasd etmadi *baytul haram* ichra [4;321].

Baytulloh – “Allohning uyi”. Ibrohim alayhissalom o‘g‘illari Ismoil alayhissalom bilan Alloh taoloning amriga muvofiq hozirgi Makkai Mukarrama shahri joylashgan o‘rinda qurgan Ka’ba binosi. Islom dini muqaddaslashtirilgandan so‘ng berilgan nom.

Sizni deb qora bo‘lgan bu yuzlarimni *Baytulloh*ga surkamay o‘lsam, ro‘zi qiyomatda qanday bosh ko‘taraman [14;118].

Ka’ba – arab. – kub. – Alloh vahiysiga muvofiq musulmonlarning ibodat yo‘nalishi (qiblasi)ni bildiruvchi tarixiy obida. Makkai Mukarramadagi Masjidul harom o‘rtasidan joy olgan 10 x 12 x 15 metrli kub shaklidagi qoramtir tosh bino. Quroni karim xabariga ko‘ra, uni Ibrohim (a.s) o‘g‘li Ismoil (a.s.) bilan tiklashgan.

Agar sening ko‘ngling bor bo‘lsa,
Ko‘ngil *Ka’ba*sini tavof qil.
Tuproqdan, toshdan qurilgan *Ka’ba*ning,
Asl ma’nosi ko‘ngildir... [15;10]

Yuqorida keltirilgan misollarda *Ka'ba, Baytulloh, Baytul haram* religionimlarining ma'nodoshligi asosida umumiy fikr yo'sinida har uch ma'nodosh ham o'z o'rni va vazifasida qo'llangan.

Banda – qul, itoatkor. Bandaning hayoti va faoliyati Allohning irodasiga, amriga bog'liq. Zero, u Zot (s.a.v.) Alloh taologa juda ham yaqin bo'lishni istar edilar. Chunon ishtiyoqi so'ngsiz *banda* ila Rabbisi orasidagi masofa esa uzundan uzoq edi... [15;16]. Bu o'rinda *banda, qul, itoatkor* so'zlari Allohga nisbatan ishlatilgan va bu paradigmada sinonimlik hosil qilgan.

Bid'at – arab. – yangilik. Ilgari yo'q bo'lgan bir ishni, narsani paydo qilish. Shar'iy bo'lmagan amalni joriy qilish. Ba'zan *xurofot, taassuf* ma'nosida ham ishlatiladi [11;389]. *Xurofot* – Safsata, be'mani gap, beasos fikr va aqida. Aslida dinda bo'lmagan yolg'on gaplar. Daraxtlarga latta bog'lash, qabrlar ustiga olov (sham) yoqish kabi amallar dinimizda yo'q bo'lib, qadimgi *xurofiy* aqidalardan hisoblanadi [9;80].

Irim – g'ayritabiiy hodisalarning kishilarga ta'sir qilishiga ishonib, biror niyat bilan qilinadigan odat, xatti-harakat. Rasulullo, (s.a.v.): "Uch narsadan mening ummatim qutula olmaydi. Bular hasad, yomon gumon va *irim*dir. Bu narsalardan qutulish uchun hasad qilsaigiz, zulmga o'tmang. Gumonu shubha qilsaigiz, unga ishonib o'sha bilan ish tutmang. Biror *irim*ga duch kelsangiz, Alloh taologa tavakkal qilib yo'lingizda va ishingizda davom eting ", – deganlar [8;15].

Xurofot, bid'at, irim so'zlari islom dinida bo'lmagan, islomda yo'q bo'lgan, taqiqlangan amallarni bajarish semasiga ko'ra sinonimlik hosil qilgan.

Kalom – arab. – ravon nutq, jumla, gap, so'z. Islom dinidagi ilmlardan birining nomi. "*Kalom* ilmining maqsadi ahli sunnaning aqidasini ahli bid'atniig tashvshidan muhofaza qilish va qo'riqlashdir". kalom, gap, jumla;

Ilmiy manbalarda aniqlanishicha, sinonimik munosabatda bo'lgan so'zlar o'zbek tili lug'at boyligining turli leksik qatlamlariga mansubdir. Masalan, anglamoq (o'zb.) – tushunmoq (o'zb.); go'zal (umumtil) – suluv (dial.); xat (ar.) –

maktub (ar.) – noma (f-t.); kishi (oʻzb.) – odam (ar.); koʻk (oʻzb.) – osmon (f-t.) – falak (ar.); analiz (r-b.) – tahlil (ar.); tema (r-b.) – mavzu (ar.) kabi [2;169].

Yuqorida keltirganimiz parchalarda qoʻllangan *kalom, gap, jumla* sinonim soʻzlari ham shunday tabiatlidir, ya'ni *kalom* arab tiliga, *gap* fors-tojik tiliga, *jumla* esa oʻzbek tiliga oid leksemalar hisoblanadi. Sinonim soʻzlarni hosil qilishning bir qator yoʻllari mavjud. Shulardan biri soʻz oʻzlashtirish natijasida sinonimlar hosil qilishdir.

Azozil – shaytonning asl ismi. Bular ham dunyoni yetti ming yil tuttilar, munda *Azozil* bor erdi, atosi Jalbis sher suratida, anosi Talbis boʻri suratida erdi [7;17].

Iblis – shaytonning ikkkinchi nomi. Arab tilida shayton soʻzi jin, ins, hayvon va boshqa mahluqlarning boʻysunmas, sarkashlariga nisbatan ishlatiladi. Shaytonni Alloh olovdan yaratgan, keyinchalik amriga itoat qilmagani uchun oliy dargohdan quvilgan, (rajim) deb la'natlangan. Lekin Alloh bandalarini sinab koʻrish uchun shaytonga muhlat bergan.

Xarraqoniy qoshiga oʻz suluk va toatidan noumid holda bir murid kirib keldi va unga shunday dedi: – *Iblis* menga koʻp hunarlar koʻrsatib, koʻnglimga har ishda rahnamolik qilmoqda [5;95].

Shayton – iblis, jin, ajina. Odamlarni din yoʻlidan ozdiruvchi, ularni gunohga, jinoyatga, razolatga boshlovchi yovuz ruh, yoki yovuz ruhlarning boshligʻi.

Allohim, qulingman, murodga yetkaz,

Koʻzlarim yoshini inobatga ol.

Shayton vasvasasini qalbimdan ketkaz,

Oʻzing yorlqagin, haq yoʻlingga sol [12;25].

Shayton, Azozil, Iblis odamlarni din yoʻlidan ozdiruvchi, ularni gunohga, jinoyatga, razolatga boshlovchi sema asosida bir sinonimik paradigma hosil qilgan.

Ateizm – Xudoni, dinni inkor etuvchi qarashlar tizimi, dahriylik. *Ateist* – ateizm tarafdori, xudosiz, dinsiz, dahriy.

Dahriy – 1. Qadimiy, abadiy. 2. Olamni abadiy va azaliy, deb biladigan va

uning Alloh tarafidan yaratilganligiga ishonmaydigan kishi. *Dinsiz* va *xudosiz.* 3. Allohning borligiga ishonmaslik. Eng yomoni, bu jamiyatlarda dahriylik hukmron bo‘lgan. Shu bois, ularni yuksalish emas, yo‘qotishlar davri demoq ayni hqiqatdir [10;30].

Ateizm, ateist, dinsiz, xudosiz religionimlari olamni Alloh tarafidan yaratilganligiga, Allohning borligiga ishonmaydiganlar semasi doirasida birlashib sinonimlik qator hosil qilgan.

Azim Hojiyevning 1974-yilda nashr etilgan “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”da ayurim diniy religionimlarga izoh berib o‘tgan. Masalan, *avliyo, vali, karomatchi [13;10]* so‘zlari paridigmasini berishda chalkashliklarga yo‘l qo‘ygan. *Avliyo, vali* so‘zlarining izohi Muxtorxon Umarxo‘jayevning “Diniy atamalar va iboralar. Ommabop qisqacha izohli lug‘ati”da quyidagicha izohlangan:

Avliyo – arab. – valiy so‘zining ko‘plik shakli. Xudoga yaqin odam. Tasavvufda Allohning zoti va sifatlarini yaxshi bilgan, uning buyurganlarini bajarib, gunoh ishlardan o‘zini saqlovchi, dunyo lazzati va shahvoniy ishlardan tiyiluvchi kishi.

Valiy – arab. – avliyo so‘zining birlikdagi ko‘rinishi. Do‘st, sodiq, yordamchi, madadkor. Sohib, xoja, murabbiy. Yaqin, muqarrab. Muqaddas inson.

Xudoning hukmini har felu so‘zga,

Nabiylar qilmadi bir zarra o‘zga,

Yetishmas hech *valiy*lar jolarig‘a (martabasi),

Yetishimas balki xoki polarig‘a (oyoq changiga) [6;16].

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, *avliyo va vali(y) [9]* religionimlari birlik va ko‘plikda kelishi ko‘rsatilgan. Demak, *avliyo va vali(y)* so‘zlari o‘zaro sinonim bo‘la olmas ekan. Azim Hojiyevning “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”da keltirilgan *avliyo, vali, karomatchi* so‘zlari qatori sinonimlik hosil qila olmaydi. *Karomatchi* so‘zi bilan *bashoratchi* so‘zi o‘zaro sinonimlik hosil qilishi mumkin.

A.Hojiyevning ushbu lug‘atida *go‘r, qabr, mozor, lahad; dafn etmoq, ko‘mmoq, qo‘ymoq; mozor, qabriston, go‘riston, mozoriston; ishq, muhabbat, sevgi*

kabi sinonim islomiy diniy religionimlar keltirilgan va o‘sha davr mafkurasi nuqtai nazardan izohlangan. Shulardan ayrim so‘zlarning lug‘atda berilishini ko‘rib o‘tamiz.

Dafn etmoq, ko‘mmoq, qo‘ymoq. Qabrga joylamoq. *Qo‘ymoq* salbiy bo‘yoqqa ega. *Qo‘ymoq* oddiy so‘zlashuvga xos. Uning bu ma’nosi ma’lum kontekstda (situatsiyada) aniq ifodalanadi.

Ular jang maydonida o‘lsa, harbiy formada *dafn etilishini* umid etgan yoshlar edi (Shuhrat). Otabek eshikdan chiqqanda Sodiqni *ko‘mib* kelgan kishilar qur’on o‘qib tarqalmoqda edilar (A.Qodiriy). Salomatning rangi sarg‘aygan, go‘yo eng yaqin kishisini qabrga *qo‘yib* kelayotgandek motamsaro bir qiyofada edi (Said Ahmad).

Ishq – muhabbat. Tasavvufda Allohga bo‘lgan ishq. Qalban bog‘lanmoq, sevgining eng yuqori martabasi.

O‘lik edim – tirildim...

Ko‘z yoish edim – tabassumga aylandim...

Ishq daryosiga sho‘ng‘idim...

Oqibat mangu davlatga erishdim.

Hazrat Mavlono Rumiy.

Alloh do‘stlariniig eng asosiy xususiyatlaridan biri ham ilohiy *ishq*qa etishdir [15;21].

Azim Hojiyevning “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”da keltirilgan *sevgi, muhabbat, ishq* kabi sinonimlar esa Muxtorxon Umarxo‘jayevning “Diniy atamalar va iboralar. Ommabop qisqacha izohli lug‘ati”da berilgan sinonimlardan o‘zgacha izohlangan. A.Hojiyev lug‘atida berilgan sinonimlar izohini ko‘rib chiqamiz:

Sevgi, muhabbat, ishq. Biror shaxs yoki narsaga kuchli darajadagi moyillik (bog‘lanish, berilish) his-sezgi. *Muhabbat* so‘zida belgi darajasi *sevgi* so‘zidagiga nisbatan kuchli. *Ishq* so‘zida muhabbat so‘zidagiga nisbatan kuchli.

“Yo‘q, sira xavotir bo‘lmang, – dedi Elmurod va samimiy takrorladi – men

*sevgi*ni va sevishganlarni hurmatlayman” (P.Tursun). Qulay payt kelsa, ilhomi qaynab, qizning ko‘zlariga tikilganicha gaplarni tizib tashlar, lekin qalbida mavj urgan *muhabbat* to‘lqinining ochiq ifodasini topolmas edi (P.Tursun). … yonida dil rozini o‘qiy boshlagan Majnuniga *ishq* to‘la, mayl to‘la ro‘zlar bilan charaqlab qaradi (M.Ismoiliy). Ushbu izohlardan ko‘rishimiz mumkinki, sinonim so‘zlarga diniy nuqtai nazardan izoh berish maqsad qilinmagan. Buning sababini sho‘rolar mafkurasi hukmron bo‘lgan davrdan izlash to‘g‘ri bo‘ladi. Buni sho‘rolar davrida yaratilgan barcha asarlarda kuzatish mumkin. Va yana bu holatni sho‘rolar davrida diniy leksikani cheklanganligi bilan izohlash mumkin.

Muxtorxon Umarxo‘jayevning “Diniy atamalar va iboralar. Ommabop qisqacha izohli lug‘ati”da *bomdod, sahar, tongotar; boqiy dunyo, narigi dunyo, abadiy dunyo; bog‘i eram, afsonaviy bog‘; vaqf, mol-mulk; vojib, burch; gunoh, ayb; dafn, ko‘mish; jannat, behisht, bo‘ston; jamoat, guruh, ko‘pchilik; ishq, muhabbat; kofir, dinsiz; mehrob, sajdagoh; mulla, ilmli* kabi sinonimlar qatorini uchratishimiz mumkin.

Sinonim so‘zlarining sinonimik munosabatidan badiiy asarlarda o‘ziga xos poetik tasvirni yaratish maqsad qilinsa, diniy leksikada esa boshqacha holatni kuzatamiz. Religionimlarda sinonimiya hodisasi boshqa tillardan so‘z o‘zlashtirish orqali hosil qilinadi. Religionimlar sinonimiyasi paradigmasida albatta bitta so‘z arabcha bo‘ladi. Shu arabcha so‘z boshqa tillarda o‘sha o‘zlashtirilgan til leksikasida mavjud bo‘lgan so‘z bilan atalib sinonimlikni hosil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Berdialiyev A., Ermatov I. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya). Universitet va pedagogika oliy o‘quv yurtlarining o‘zbek tili va adabiyoti bakalavri fakultetlari talabalari uchun darslik. – Toshkent, Turon-Iqbol, – 2021.
2. Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент, 2005. – 169 б.

3. Йўлдошев М. Бадиий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент: ТДПУ, 2007. –

4. Навоий, Алишер. Хазойинул-маоний. 4-асар. – Тошкент: Фан, 1987.

5. Навоий, Алишер. Лисонут-тайр. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1984.

6. Оллоёр, Суфи. Саботул-ожизин. – Тошкент: Меҳнат, 1991.

7. Rabg‘uziy. Qisasul-anbiyo. (Litografiya. F. Xasan Orifjonov. – Toshkent, 1330 h.

8. Султонхўжа ўғли, Рамзиддин. Қабр зиёрати одоби //Ҳидоят, 2003. – №4. – Б. 15.

9. Умархўжаев М. Диний атамалар ва иборалар. Оммабоп қисқача изоҳли луғат. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2016.

10. Файзулло, Вафо. Ислом ҳазораси //Ҳидоят, 2004. – №3. – Б. 30.

11. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Kifoya. T.2. T.://Shark, 2008,389-6.

12. Ҳотамов С. Муяссар эт кўнгил тўқлигин //Ҳидоят, 2008. – №4. – Б. 25.

13. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1974.

14. Ҳамза. Паранжи сирлари. Тўла асарлар тўплами. 4-том. – Тошкент: Фан, 1989.

15. Usmon Nuriy To‘pbosh. Bir ko‘za suv. T., 2007, 10-6.)